



Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-sentabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 087 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 075 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 19 306,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 112,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 886,7 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 141,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 17 419,4 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,0 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 136,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 891 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 880 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 14 263,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 10 424,1 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 73,1 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Chortoq (180,4 %), Mingbuloq (114,0 %) va Namangan tumani (121,2 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 244 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 238 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 16 989,4 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.